

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti



SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>

SHARQ MASH'ALI

YEVROPAGA MIGRATSIYA VA QOCHOQLAR OQIMI: MINTAQA
DAVLATLARINING MIGRATSIYA SIYOSATI*Dilshod Muydinov**Mustaqil izlanuvchi, s.f.b.f.d, dotsent**O'zbekiston Milliy universiteti**Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: Yevropa davlatlari, migratsiya, qochoqlar, “Global qishloq”, migratsiya siyosati.

Annotatsiya: Yevropa mintaqasi bugungi kunda eng koʻp migratsiyani amalga oshirayotgan hududga aylanmoqda, migrantlar bilan birga mintaqaga noqonuniy yoʻllar bilan kirib keladigan insonlar jamoasi ham maʼlum darajada yuksalmoqda. Bunday koʻplab insonlar jamoasining qonuniy va noqonuniy yoʻllar bilan kirib kelishiga Yevropa mintaqasidagi boshqa mintaqalarga nisbatan faravonlik darajasining yuqoriligi va sanoatning rivojlanganligi hamda dunyoda sodir boʻlayotgan boshqa jarayonlar ham asosiy omillardan biridir. Yevropa mintaqasi uchun migrantlar yangi mavzu emas ushbu masala doirasida mintaqada davlatlari tarixda ham bugungi kunda ham tashqi va ichki siyosatda oʻz yollarini, taktikasini namoyon etgan. Migrantlarning ulushi oshib borishi bilan Yevropa mintaqasidagi migratsiya bugungi kunda eng koʻp etibor qaratilayotgan, uning sabablari, keltirilgan oqibatlari va natijalari har qachongidan ham koʻproq muhokamaga aylanayotgan mavzu hisoblanadi. Albatta, bu masalalarni oʻrganishda migrantlarni va qochoqlarni qaysi hududlardan kelayotganli ham ahamiyatlidir. Maqolada mintaqada davlatlariga migrantlarning kirib kelishini turli davrlarda va turli xil siyosiy va iqtisodiy jarayonlardagi korinishi, Yevropada migratsiya qanday va nimadan boshlandi va uning oqibatlari, mintaqada davlatlarining migratsiya borasida siyosati boshida qanday edi va keyingi paytlardagi oʻzgarishlari haqida soʻz boradi. Bu boradagi Yevropa davlatlarining yondashuvi tarixi perspektivlikdan kelib chiqib ochiqilanadi va davriylik oʻzgarishlari koʻrsatib oʻtiladi. Maqolaning xulosa qismida, mavzu yuzasidan tegishli xulosa sifatida migratsiyaning hal boʻlishi qiyin jarayon ekanligi bayon qilingan.

MIGRATION AND REFUGEE FLOW TO EUROPE: MIGRATION POLICY OF REGIONAL STATES

Dilshod Muydinov

Independent researcher, Doctor of Philosophy, Associate Professor

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: *European countries, migration, refugees, "Global Village", migration policy*

Abstract: The European region is currently experiencing the highest influx of migration, with the number of individuals entering through both legal and illegal means rising significantly. This influx is not only a result of the higher levels of prosperity and industrial development in Europe compared to other regions but also reflects major trends amidst various global phenomena. Migration has been a recurring topic in the European region, not only in history but also in contemporary external and internal policies, revealing its own methods and tactics. With the increasing number of migrants in Europe, migration is receiving significant attention, with extensive discussions on its causes, consequences, and implications. Understanding where migrants and refugees originate is crucial. This article examines how migration to the region has evolved over different periods and in various political and economic contexts, including its beginnings, consequences, and the initial policies of regional states regarding migration, as well as subsequent changes. It provides a historical perspective on European states' approaches, indicating longterm trends and evolutionary changes. The conclusion emphasizes the complexity of migration as a pressing issue.

МИГРАЦИЯ В ЕВРОПУ И ПОТОК БЕЖЕНЦЕВ: МИГРАЦИОННАЯ ПОЛИТИКА СТРАН РЕГИОНА

Дилшод Муйдинов

Независимый соискатель, доктор

философии по политическим наукам, доцент

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: страны Европы, миграция, беженцы, «Глобальная деревня», миграционная политика.

Аннотация: Европейский регион в настоящее время испытывает наибольший приток миграции, причем количество людей, входящих в регион как легальными, так и нелегальными способами, значительно увеличивается. Этот приток является не только результатом более высокого уровня благосостояния и промышленного развития в европейском регионе по сравнению с другими регионами, но и отражает основные тенденции в условиях различных глобальных явлений. Миграция является повторяющейся темой не только в истории, но и в современных внешних и внутренних политиках, открывая свои собственные методы и тактики. С увеличением числа мигрантов в Европе

миграция получает особое внимание, с обширными обсуждениями ее причин, последствий и влияния. Понимание источников происхождения мигрантов и беженцев имеет ключевое значение. В статье рассматривается, как миграция в регион развивалась в разные исторические периоды и в различных политических и экономических контекстах, как она начиналась и каковы были ее последствия, а также первоначальная политика региональных государств в отношении миграции и последующие изменения. В статье представлен исторический взгляд на подходы европейских государств, указывающий на долгосрочные тенденции и эволюционные изменения. В заключительной части подчеркивается сложность миграции как актуальной проблемы.

KIRISH

Yillar davomida migratsiyaning asosiy oqimini qabul qilgan hudud sifatida Yevropa migratsiya siyosatini yuritish bo'yicha o'z tarixiga ega mintaqa hisoblanadi. Ko'plab tadqiqotchilar Yevropaga migratsiyaning har qachongidan ham ko'plab oqimi kirib kelishni uch davrga bo'lib o'rganadi. Birinchi davr urushdan keyin to 1973-1974-yillarda yuz bergan neft inqirozigacha bo'lib, bu davr barqaror iqtisodiy o'sish va musofir ishchi dasturlarining ishlab chiqilishi va rivojlanishi, sobiq mustamlaka yerlardan vatanlariga qaytgan migratsiya hamda qochoqlar. Bular asosan sharqdan g'arbga harakat qilgan migratsiya hisoblanadi. Ikkinchi davr neft inqirozi bilan boshlanadi va 1980-yillarning oxirigacha ya'ni "temir panjaralarning" qulashigacha davom etib, bu paytda musofir ishchi dasturlari yopiladi. Shimoliy-g'arbiy Yevropa davlatlari hukumatlari migratsiya sonini kamaytiradi, shu bilan birga, migrantlar oilalarini birlashtirish va shakllantirish siyosati olib boriladi. Bundan tashqari, boshpana so'rovchilarga joy berish ortiriladi. Uchinchi davr 1990-yildan "temir pardaning" qulashi bilan to bugungi kungacha bo'lib, Yevropa Ittifoqining tuzilishi va ta'sirini ortishi, uchinchi davlatlardan Yelga migratsiyaning kelishini nazorat qilish va ichki Yevropa mobilligini oshirish siyosatlarini o'z ichiga oladi.¹

TADQIQOTNING USULLARI

Yevropaga migrantlar kirib kelishini tadqiqotchilar uch davrga bo'lganini, ushbu yillardagi Yevropa davlatlarining migratsiya siyosatiga, davlatlarga kelgan migratlarning ulushi va ularning faoliyatlariga kengroq to'xtalish o'rinalidir.

¹ Christof Van Mol and Helga de Valk, Migration and Immigrants in Europe: A Historical and Demographic Perspective. B. Garcés-Masareñas, R. Penninx (eds.), *Integration Processes and Policies in Europe*, IMISCOE Research Series, 2016. – P. 31.

Ikkinchi jahon urushidan keyin jamoaviy migratsiya chegaralangan muddatga kirish nomi ostida kechdi.² Yevropa 1945-yildan boshlab urushning vayronalarini – yo‘l, temir yo‘l, konlar, uylar va ish yerlarini yangitdan insho etish bilan mashg‘ul bo‘ldi. Qit‘aning ishchi kuchi bunday kattalikdagi ish uchun har qanday holatda yetarsizdi, shu bilan birga urushda ishlaydigan millionlab insonning o‘limi inson kuchiga ehtiyojni ikki barobarga oshirgandi. Shuningdek, mahalliy ishchilar orasida oliy ma‘lumotlilari kundan kunga ko‘payib borardi va ijtimoiy mobillikning imkoniyatlari ortishi bilan ular “oq yoqali” ishlarga o‘tib ketdi.³ Ortiq mahalliy aholi kam maosh to‘laydigan va sog‘lom bo‘lmagan qishloq xo‘jaligi sohasi, konlarda va zavodlarda ishlashni xohlamasdi. Shu sababli, bu kabi ishlab chiqarish yo‘nalishida ishchi kuchi vakansiyasi ortib bordi. Bu G‘arbiy Yevropaga migratsiyaning asosiy sababi bo‘lgan bo‘lsada lekin boshqa sabablar ham mavjud edi. Chunki, boshqa irqqlar va madaniyatlardan bu kabi buyuk miqyosda migrantlarning qabul qilish ortida ikkinchi jahon urushining (irqchilikga asoslangan) xotiralarini o‘chirish hamda “sovuq urushi” davrida kommunistik dunyo bilan raqobat ichida bo‘lgan G‘arbiy Yevropa davlatlarining uchinchi dunyo davlatlaridan ishchi olishi orqali o‘z tarafdorlarini ko‘paytirish yoki o‘zlari haqida ijobiy taassurot qoldirish siyosati ham yo‘q emasdi. Shu bois, dastlabki o‘n yillikda G‘arbiy Yevropa migratsiya bo‘yicha “ochiq eshiklar” siyosatini olib bordi.

Urushdan keyin mustamlakalariga mustaqilligini bergan davlatlar (Fransiya, Angliya, Gollandiya, Italiya) dastlab ish kuchi talabini qisman imperiyalarining uzoqdagi yerlaridan qaytib kelgan yevropaliklar hisobiga, keyinchalik eski mustamlakalaridagi mahalliy aholi hisobidan to‘ldirdi. Juda ko‘p qaytib kelgan migrantlar yuridik jihatdan fuqarolar hisoblanardi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, 1940-yildan 1975-yilgacha mustamlaka yerlardan qaytib kelgan yevropaliklar 7 millionni tashkil qilgan⁴ va asosiy qaytib kelgan migrantlar Keniya, Hindiston va Malayziyadan Angliyaga, Shimoliy Afrikadan Fransiya va Italiyaga, Kongodan Belgiyaga (oz miqdorda bo‘lsada) va Indoneziyadan Gollandiyaga kelgandi.⁵ Albatta, Yevropaning shiddat bilan rivojlanayotgan sanoatiga qaytib kelgan yevropaliklar bilan ham ishchi kuchini to‘ldira olmasdi. Shu bois, sobiq mustamlaka yerlaridan ham mahalliy aholidan ishchi olini boshlandi. Natijada, Angliyada 1953-yilga kelib Bredford va Yorkshirda taxminan 350 afrikalik, osiyo va g‘arbiy hindlik bor edi. Ko‘p o‘tmay hindistonlik va pokistonliklar jamoaviy guruh bo‘lib kela boshladi. Ularning ko‘pchiligi paxta ishchilari, yuk tashuvchi va oshxona ishchisi bo‘lib ishlardi.

² Williamson J. G., “Global migration”, Finance and Development, 43/3 (September 2006), // <http://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2006/09/williams.htm>

³ Boyle P., Halfacree K., & Robinson V. Exploring contemporary migration. Essex: Pearson Education Limited, 1998.

⁴ Bade K. J., Europa en movimiento: Las migraciones desde finales del siglo XVIII hasta nuestros días. Barcelona: Crítica, 2003.

⁵ Bade K. J., o‘sha manba.

Besh yil ichida Bredfordning janubiy osiyoli aholisi o'n barobarga oshdi. 1950-yillarning oxiriga kelib Angliyada 55,000 hindistonliklar va pokistonliklar, 125,000 g'arbiy hindistonliklar yashamoqda edi.⁶

Urushdan keyin Fransiya ham boshqa Yevropa davlatlaridagi holatni boshidan kechirdi. Sharl de Goll 1945-yil 3-mart kuni chiqishida Fransiyada ishchi kuchi yetishmasligini "mamlakatning oyoqqa turvolishidagi eng katta to'siq" sifatida keltirgandi. U paytda Fransiyaning eng kamida 1,5 million ishchiga ehtiyoji borligini hisoblab chiqqandi.⁷

Imperatorliklarga oid bo'lmagan davlatlar, nisbatan kambag'al davlatlardan "musofir ishchi" kelishuvlarini imzolay boshladi. Bu tur kelishuvlarni birinchi bo'lib Shvetsiya imzoladi. Shvetsiya Yevropaning yangidan qurilishida eng ko'p foydalanishga nomzod o'lka edi va shunday ham bo'ldi. 1970-yillardagi neft inqirozigacha yillik 4 foiz o'sishga erishgandi, 1960-yillarning katta qismini esa yillik 7 foiz o'sish ko'rsatgandi. Shvetsiyaning yagona kamchiligi fabrikalarida ishlatadigan yetarlicha inson kuchiga ega emas edi. Ko'pchiligi shvedcha gaplashgan finlandlar bu ehtiyojni katta qismini qoplagan bo'lsada, hali ham jiddiy miqdorda ish kuchi talabi boridi.⁸ G'arbiy Germaniyaning musofir ishchi (Gastarbeiter) dasturi esa Yevropani "bir tuyaga aylantirgandi". Gastarbeiter dasturi ishchiga qonuniy status berish bilan birga u yerda qolish muddatini ham belgilab berdi. Shuningdek, uning nima uchun da'vat qilinganini ham ko'rsatib berdi.

Germaniya boshqa davlatlarga nisbatan biroz kech ya'ni, 1955-yilda oz miqdorda italiyalik dehqon ishchilarni olib kelishni tizimli yo'lga qo'yish bilan bu dasturni boshlangandi. Urushdan keyin Germaniya "iqtisodiy mo'jizasining" bahorini yashayotgandi va sanoatning ham ish kuchiga talabi katta edi. Musofir ishchi dasturi tezlikda iqtisodiyotning yangi sektoriga yoyildi. Germaniya Yevropaning janubidagi davlatlardan – Ispaniya, Gresiya, Portugaliya, Yugoslaviya va Turkiya, Shimoliy Afrikadan – Morakkashdan ishchi olishni boshladi. 1961-yil "Berlin devorini" qurilishi bilan Sharqiy Germaniya g'arbga ishchi yubormaydigan bo'ldi. Natijada ishchi kuchiga talab yanada ortti. G'arbiy Germaniyada 1960-yilda 329,000, 1964-yilda bir million va 1973-yilda 2,6 million Gastarbeiter bor edi.⁹

1974-yildan 1980-yil oxirigacha migratsiya: Neft inqirozi (1973-74 yillar) Yevropa iqtisodiy landshaftiga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Inqiroz iqtisodiy o'sishni sekinlashtirdi va ishchi kuchiga talab ham kamaydi. Shvetsariya va Shvetsiya 1970-1972-yillarda migratsiya oqimini to'xtatgan birinchi davlatlar edi. Keyinchalik, Germaniya 1973-yilda, Benilyuks davlatlari va Fransiya 1974-yilga kelib migratsiyani to'xtatdi. Lekin, migratsiya batamom to'xtamadi balki,

⁶ Caldwell C., 2010, o'sha manba, pp. 35-45.

⁷ Caldwell C., 2010, o'sha joyda.

⁸ Caldwell C., 2010, o'sha joyda.

⁹ Caldwell C., 2010, o'sha joyda.

qattiq nazoratga olindi va qisqartildi. Yevropa davlatlarining migratsiya siyosatidagi o'zgarishlar ya'ni, o'zgarib turuvchi migratsiya tizimidan zanjir tizimiga o'tkazilishi hamda, migrantlarning tabiiy o'sishi natijasida Yevropada migrantlar soni oshib bordi. Yevropalik bo'lmagan migrantlar ham doimiy qolishni eng yaxshi yo'l deb hisoblay boshlashdi. Chunki, vatanlariga qaytgan ko'pchilik migrantlar yana ishsiz qolayotgan va ma'lum muddatga qaytganlar ham yashash ruhsatnomasidan mahrum bo'lishi mumkin edi. Natijada, ko'plab migrantlar o'z oilasini Yevropaga olib kela boshladi. Hukumatlarni boshlanishda oilaviy migratsiyani cheklash bo'yicha harakatlari muvafaqqiyatli bo'lmadi.¹⁰ Oxir oqibat ishchi-migrantlarning oilalarni birlashtirish ularning fundamental huquqlari ekanligi tan olindi va bu 1961-yilda qabul qilingan Yevropa ijtimoiy xartiyasining 19 moddasida mustahkamlab qo'yildi.

Vaqt o'tishi bilan Yevropada yashovchi migrantlarning tarkibi ham o'zgarib bordi. Agar, migratsiya jarayonlarining birinchi davrida (1945-1973-yillar) yevropalik migrantlarning soni ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsa, ikkinchi davrda (1974-1990-yillar) yevropalik bo'lmaganlar ko'pchilikni tashkil qila boshladi. Masalan, Shvetsiyada 1970-yillarda 7,6 foizni tashkil qilgan yevropalik bo'lmaganlar 1999-yilda 40 foizni tashkil qildi.¹¹ Bunga Janubiy Yevropa davlatlarida iqtisodiy rivojlanishni ortib borishi va u yerlardan ishchilarning kelishi kamayishi, buni aksiga Shimoliy Afrika va Turkiyada aholi sonining ortishi va u davlatlardagi ishsizlik Yevropa tomon har xil yo'llardan ketishlar sabab bo'lgandi.

1990-yildan keyingi mintaqadagi migratsiya: Xalqaro ekspertlar va ushbu soha mutaxassislari hech ikkilanmasdan migratsiyani XXI asrni ajiralmas qismi bo'lishini ta'kidlamogda. "Global qishloqda" migratsiya bosimi ortib borishi va demografik hamda iqtisodiy tengsizlik, atrof-muhit va siyosiy muammolar, yanada yaxshi yashash sharoitlariga intilish global miqiyosda ortib borishi migratsiyaning asosiy sabablari bo'lib qolishini aytish mumkin. Ayniqsa, Yevropani migrantlar bosib olayotganligi to'g'risidagi qayg'ular kundan kunga ortib bormogda.

Shimoliy-g'arbiy Yevropa davlatlari 1990-yilda sharqiy blokning qulashi bilan "oltin oltmish yillik" davridagi kabi migratsiya bosimi qarshisida qoldi. Bu gal an'anaviy uchinchi dunyo davlatlari emas balki, sharqiy Yevropa davlatlaridan migrantlar kela boshladi. 1993-yil

¹⁰ Castles S., De Haas H., & Miller M. J., The age of migration: International population movements in the modern world. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2014.

¹¹ Goldscheider C., Bernhardt E., & Goldscheider F. What integrates the second generation? Factors affecting family transitions to adulthood in Sweden. In C. Bonifazi, M. Okólski, J. Schoorl, & P. Simon (Eds.), International migration in Europe: New trends and new methods of analysis (IMISCOE research. Amsterdam: Amsterdam University Press, pp. 226-245.

sharqiy Yevropadan 1 million migrant kirib kelgandi.¹² Albatta, migratsiya an'anaviy uchinchi dunyo davlatlaridan ham kelish davom etdi.

1990-yildan 2017-yilgacha Yevropadagi qochoq va migrantlar sonining o'sib borishini ko'radigan bo'lsak, Yelning 26 davlatlari ichidan 2 milliondan ortiq immigrantrlarga ega davlatlar bor yo'g'i 7 tani tashkil etadi. Asosiylari an'anaviy migrantlar qabul qiluvchi davlatlar Germaniya (12 mln.dan ortiq, o'sish 1990-yildan 120 foizni tashkil qilyapti), Buyuk Britaniya (9 mln.ga yaqin, o'sish 420 foiz) va Fransiya (8 mln.ga yaqin, o'sish 1990-yildan 100 foizdan sal ko'p) hisoblanadi. Boshqalariga qaraganda jiddiy o'sishni (har ikkisi 6 mln. atrofida) Italiya (o'sish 700%) va Ispaniya davlatlari tashkil qilmoqda. Keyingi o'rindagi davlatlar masalan, Shvetsiya (1,7 mln.), Avstriya (1,6 mln.) va Belgiya (1,2 mln.) tashkil etadi.¹³

NATIJALAR

Yevropa davlatlarida ushu uch davrda migrantlarni ulushini ko'radigan bo'lsak, Angliya o'n to'rt yillik (1948-1962-yillar) migratsiyaga nisbatan ochiq eshiklar siyosatini jamiyatda yuz bergan migratsiyaga qarshi irqiy harakatlar va noroziliklar natijasida 1962-yil Migratsiya qonunini (Commonwealth Immigrants Act) qabul qilgan holda yopdi. Lekin, Britaniya ham boshqa Yevropa davlatlari kabi migratsiyani oldini olish borasida muvaffaqiyatga erisha olmadi. Oxirgi aholi soni (2008-yilgi ma'lumot) hisoblariga qaraydigan bo'lsak, Angliyada janubiy osiyolik (hind, pokistonli, bangladesh) 2,083,759 va yarimini Karip dengizi xavzalaridan kelganlarni tashkil etuvchi 1,148,738 "Qora tanli ingliz" inson yashamoqda.¹⁴ Birgina Londonda 300ga yaqin farqli tillarda gaplashadiganlar borligi aniqlangan.¹⁵

Fransiyada esa urushdan keyingi o'ttiz yillik davrda Fransiya ko'p ham rasmiy bo'lmagan kanallardan tahminan 700 000 migrant keldi. Bu rejali migratsiya emasdi. Ko'pchiligi Jazoir revolyusiyasining shiddatlaridan qochgan insonlardir. 1962-yilda bir vaqt Fransiya haftada 70 000 jazoirlik kelardi.¹⁶ 2012-yilda Fransiya 5,5 million xorijlik yashamoqda va ularning 3,2 millioni xorijlik, 2,3 millioni fransuzlashgan xorijliklardan iborat.¹⁷ Germaniyada esa, 1960 va 1973-yillari orasida kelgan 18,5 million musofir ishchining to'rt dan uchi kelishuv doirasida ikki yillik muddatdan keyin ona-vatanlariga qaytgandi. Lekin, har ikki yilda ishchi almashtirish korxonasi va umuman Germaniya uchun juda qimmatga tushayotgandi. Shu bois, ishchilarni oilalarini birlashtirish siyosatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha hukumatga bosim kuchaydi.

¹² Williamson J.G., "Global migration", Finance and Development, 43/3, 2006.

¹³ Castles S. and Miller M. J., The Age of Migration: Population Movements in the Modern World, 3th ed. Basingstoke: Palgrave MacMillan, 2003.

¹⁴ Caldwell C., 2010, o'sha joyda.

¹⁵ Vertovec S., "Super-diversity and its implications", Ethnic and Racial Studies 30 (6), 2007. – P. 13.

¹⁶ Caldwell C., 2010, o'sha joyda.

¹⁷ INSEE, Immigrés et descendants d'immigrés en France. Edition 2012.

Neft inqirozi davrida ham shimoliy-g'arbiy Yevropa davlatlari ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqarorligini saqlab qoldi va rivojlanishda davom etdi. Bu davrda migrantlar yuboruvchi davlatlar masalan Turkiya u inqirozdan bu inqirozga kirayotgandi, iqtisodiy-ijtimoiy turg'ulik davom etardi. Shimoliy Afrika va Afrikaning boshqa davlatlarida davlatlararo va ichki etnik-millik konfliktlar avjida edi. Yaqin Sharqda esa Isroil-Falastin mojarasi dunyo bo'ylab qochoqlarni va migrantlarni sonini oshirib yubordi.¹⁸

Migratsiyaga "ochiq eshiklar" siyosatining tugatilishi, migrantlarning nazorati oshirilishi ro'y bergan bo'lsada, boshqa tarafdin migratsiya mavzusi ijtimoiy-siyosiy debatlarida keng muhokama qilinadigan bo'ldi. Iqtisodiy turg'unlik natijasida ishsizlikning ortishi mahalliy aholi orasida ba'zi immigrantlarga nisbatan irqchilik, ksenofobiya va dushmanlikning ortishiga sabab bo'ldi. Ba'zi Yevropa davlatlarida immigrantlarga nisbatan zo'ravonliklar sodir bo'lgandi.¹⁹

Har qanday chegaralashlar, tanqid va haqoratlar ko'paymasin Yevropada migrantlar soni yildan yilga oshib bordi. Bu davrda Germaniyaga eng ko'p migrant joylashdi. Ularning soni 1990-yilda 5,2 milliondan oshib ketgandi. Bu paytda Fransiyada 3,6 million undan keyingi o'rinda Angliya 1,9 million migrantga ega edi. Diqqatga sazavor joyi bu davrda immigrantlarning strukturasi o'zgarish yuz berdi. Ular orasida ayol va yoshlarning ulushi oshib bora boshladi. Masalan, 1974-1981-yillarda Germaniyaga erkak immigrantlar soni kamaygan bo'lsada, ayol immigrantlar soni 12 foizga oshdi va 15 yoshdan past bo'lgan immigrantlar soni 52 foizga oshdi. Natijada, Germaniya siyosatchilari kutganidek 1970-yillardan immigrantlar soni kamaymadi balki, 1970-yillar oxirida ham 4 million atrofida qoldi va hatto, 1980-yillarga kelib 4,5 million, 1990-yilga kelib esa Germaniyani birlashishi bilan 5 millionga chiqib ketdi.²⁰

Bundan tashqari, immigrantlar soni Yevropada avvallari migrant jo'natuvchi davlatlar hisoblangan Ispaniya, Italiya, Portugaliya kabi davlatlar hisobiga ham ko'paydi. Masalan, 1990-yilga kelib Italiyada 781 ming, Ispaniyada 279 ming, Portugaliyada 108 ming musofir ishchi bor edi.²¹ Bu davlatlarda tashrif buyurgan migrantlarning aksariyati Shimoliy Afrika va Lotin Amerikasidan kelganlar tashkil etardi.

Migrantlarning Yevropada o'sib borishiga mintaqa davlatlarining qochoqlarni qabul qilish ham ta'sir qildi. 1970-yillar boshidan yigirmanchi asr oxirigacha Yelga qochoqlarning qabul

¹⁸ Christof Van Mol and Helga de Valk, *Migration and Immigrants in Europe: A Historical and Demographic Perspective*. B. Garcés-Mascareñas, R. Penninx (eds.), *Integration Processes and Policies in Europe*, IMISCOE Research Series, 2016.

¹⁹ Bonifazi C. *Evolution of regional patterns of international migration in Europe*. In C. Bonifazi, M. Okólski, J. Schoorl, & P. Simon (Eds.), *International migration in Europe: New trends and new methods of analysis* (IMISCOE research, 2008. pp. 107–128). Amsterdam: Amsterdam University Press.

²⁰ Castles S. and Miller M. J. *The Age of Migration: Population Movements in the Modern World*, 3th ed. Basingstoke: Palgrave MacMillan, 2003, p. 80.

²¹ Castles S. and Miller M. J., o'sha manba, p. 81.

qilishi to'g'risidagi arizalari yildan yilga oshib bordi. Bu davrda 15 a'zo davlatlarga yiliga 15 000 dan 300 000 gacha qochoqlarning arizalari kelib tushardi.²² Germaniya Yevropa davlatlari ichidagi eng ko'p qochoqlarga boshpana bergan davlat bo'ldi. 1980-yillardan Belgiya, Gollandiya va Buyuk Britaniyada ham qochoqlarni sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin. Yevropa davlatlariga qochoqlarning tez suratlarida o'sishiga albatta, tarixiy voqea-xodisalar ham ta'sir qilgan ayniqsa, 1990-yillar boshida SSSRning qulashi va Yugoslaviyadagi urushlar YeIga qochoqlarning ikki barobarga oshishiga sabab bo'lgandi.²³

“Sovuq urush”ni tugashi va Yugoslaviyadagi mojarolar yangi migratsiya va qochoq to'liqini vujudga keltirdi. 1989 va 1992-yillar orasida qochoqlar 320 000 dan 695 000 mingacha oshdi va 90 yillar oxiriga kelib 455 000 ga qisqardi. Lekin, 2001-yil 471 000 ga ko'paydi. Bu davrda eng ko'p besh davlat qatorida Yugoslaviya (836 000), Ruminiya (400 000), Turkiya (356 000), Iroq (211 000) va Afg'oniston (155 000) qochoqlari bilan ustunlikka ega bo'ldi.²⁴

XXI asrning birinchi o'n yilligida yangi boshpana so'rovchilarga nisbatan cheklovlar o'rnatildi va bu shiddatli to'qnashuvlarning soni konyukturasiga qarab belgilandi. 2002-yildan 2006-yilgacha YeIning 15 davlatiga boshpana arizalari 393 000 dan 180 000 gacha qisqardi.²⁵ Lekin, 2006-yildan Iroq va Afg'onistondagi mojarolar va 2010-yildagi “Arab bahori” tufayli qochoqlar soni yana ortdi. 2010-yilga kelib YeI 25 davlati va Norvegiya, Shveysariya bilan birga 254 180 ariza qabul qildi va bu YeIga migratsiyaning 6 %ni tashkil etdi. Ko'p arizalar Fransiya (47 800), Germaniya (41 300), Shvesiya (31 800), Buyuk Britaniya (22 100) va Belgiyaga (19 900) kelib tushdi.²⁶

2000-yillarda migratsiya siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida muhim mintaqaviy sammitlar bo'lib o'tdi va bu kabi konferensiya va sammitlarda migratsiya, qochoqlar va boshpana so'rovchilar masalasida muhim dastur, qaror, tavsiya va qarashlar qabul qilindi. Shulardan biri 1999-yil bo'lib o'tgan Tampere sammiti edi. Bu sammitda yagona boshpana, viza va migratsiya siyosatini rivojlantirish uchun to'rtta sohani kerakli ekanligi ta'kidlandi. Bu sohalar immigrant va boshpana istovchilarning orginal (asl) davlatlari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, yagona boshpana tizimi, uchinchi davlat fuqarolariga odil muomala va noqonuniy migrantlar tijoratini olib borganlarga og'ir jazolarni qamrab olgan migratsiya oqimlar boshqaruvi

²² Christof Van Mol, o'sha joyda.

²³ Hatton T. Seeking asylum in Europe. *Economic Policy*, 19 (38), 2004, 5-62. Iqtibos manbasi: Christof Van Mol and Helga de Valk. 2016, o'sha manba.

²⁴ Castles S. and Miller M. J., o'sha joyda.

²⁵ Castles S. o'sha manba, p. 229

²⁶ Castles S. o'sha joyda.

edi.²⁷ 2004-yil noyabrda Bryusselda Yevropa Komissiyasida erkinlik, xavfsizlik va adolat sohasida Gaaga dasturi qabul qilindi.²⁸

Ushbu dasturdagi asosiy xususiyatlar qonuniy migrantlarga katta e'tibor qaratish, ularning Yevropa iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rnini ko'rib chiqish, qonuniy yashab turgan immigrantlarning jamiyatga integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan milliy siyosatlar orasida hamkorlikni o'rnatish, ham manbaa (migrantlar kelib chiquvchi) davlat ham tranzit (o'tuvchi) davlatlardagi qochoqlarni himoyalaniishi sohasidagi harakatlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berish, migratsiyani kelib chiqishini oldini olishga doir ishlarni rivojlantirish shular jumlasidandi. Lekin, alohida ta'kidlab o'tish kerakki, 2005-2010-yillar orasida Gaaga dasturi doirasida yangi Yevropada Qochoqlar Fondi tashkil etildi va 2009-yil Yevropada Migratsiya Tarmog'i tuzildi. 2010-yilga kelib Gaaga dasturini o'rnini Stokgolm dasturi oldi va bu 2010-2015-yillarni o'z ichiga olgan "fuqarolarni himoyalagan va unga xizmat beruvchi ochiq va xavfsiz bir Yevropa yaratishni" maqsad qildi.²⁹

MUHOKAMA

Yevropada migratsiyaning uch davrdagi natijalarini muhokama qiladigan bo'lsak, **birinchi davrda** albatta, Yevropa tomon migratsiya faqat ishchi kuchi talabi tufayli yuz bermagandi. Bu borada tadqiqotchi Kasels va Millerning fikricha, urushdan keyingi davrda migratsiya quroli konfliktlar va yirik tabiiy ofatlar, global tengsizlikning ortishi va yangi xalqaro kelishuvlar, shaxsiy harakatlarning liberallasuvi tufayli tezda ortti. Jumladan, sharqiy Yevropadagi siyosiy inqirozlar masalan, Vengriyadagi (1956-1957), Chexoslovakiyadagi (1968-1969) va Polshadagi (1980-1981) inqirozlar natijasida ko'p miqdorda migrantlarni kirib kelishini ta'minladi. Eng qizig'i "Sovuq urushi" munosabati bilan sharqiy Yevropadan g'arbga qanday maqsadlarda kelmasin ular migrant emas, siyosiy qochoqlar hisoblangan. Nima bo'lganda ham bu davr ham ish beruvchi ham migrant uchun "Oltmish yillik oltin davr" (1961-1973-yil) deb nomlandi. **Ikkinchi davrda**, Shimoliy-g'arbiy Yevropa davlatlariga migratsiyani cheklashlarning kuchaytirilishi migratsiya oqimini janubiy Yevropaga o'zgartirdi va bu 1980-yillardan boshlangan bo'lsa, 1990-yillarga kelib sezilarli darajada ortdi. Janubiy Yevropa davlatlari (Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Gresiya) qochoqlar qabul qilishda ham o'rni oshib bordi.

²⁷ Tampere Summit Conclusion, 15-16 October 1999 // <http://www.statewatch.org/news/2008/aug/tamp.html>

²⁸ The Hague Programme – Strengthening Freedom, Security and Justice in the European Union, http://www.europol.europa.eu/jit/hague_programme_en.pdf (12.09.2018)

²⁹ The Stockholm Programme — An Open And Secure Europe Serving And Protecting Citizens // <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:C:2010:115:0001:0038:EN:PDF> (12.09.2018)

Qochoqlar ayniqsa, O'rtayer dengizi orqali suzib o'tishi keyinchalik an'anaviy tusga aylandi va bugungi kunda bu eng global va ayanchli muammodir.³⁰

Tadqiqotchi, Kasels va boshqalarning fikricha, Gretsiya, Italiya, Portugaliya va Ispaniya emigrant davlatlar toifasiga allaqachon kirgandi. Natijada, ular migratsiyani nazorat qilish bo'yicha immigratsiya qonunchiligini va tizimini yaxshi ishlab chiqisha olmadi. Bundan tashqari, bu davlatlar iqtisodiy o'sishda davom etmoqda va tug'ilishi kamayib ketmoqda. Bu o'z navbatida, ishchi kuchiga talabni oshirmoqda. Bundan tashqari, ushbu davlatlarda muntazam ish o'rning kamligi, ishda shart-sharoitlarning yo'qligi va oylik maoshlarning kamligi mahalliy aholi uchun o'z yurtida ishlashga bo'lgan ishtiyoqini kamaytirardi. Shunday qilib, janubiy Yevropa yevropalik bo'lmaganlar ayniqsa, Shimoliy Afrika, Lotin Amerika, Osiyo va temir pardaning yiqilishi bilan Sharqiy Yevropa uchun jozibador bo'lib qoldi.³¹ Bu va boshqa sabablar janubiy Yevropaga qarab migratsiyani oshishiga olib kelmoqda va bugungi kunda ham asosiy migrantlar ushbu davlatlar orqali shimoliy-g'arbiy Yevropaga qarab yo'nalmoqda. **Uchinchi davr**, Yevropa mintaqasi "Arab bahori" ayniqsa, Suriya inqirozidan keyin jiddiy migrant va qochoqlar qarshisida qoldi. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissarining 2016-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ikkinchi jahon urushidan so'ng eng ko'p qochoq va ichki ko'chishlar 2016-yilda kuzatilib, dunyo bo'ylab 60 million atrofidagi inson konflikt va zo'rvonliklar tufayli o'z uylarini tark etishga majbur bo'lgan. Eng xavfli yo'nalish trans O'rtayer dengizi bo'lib, ushbu yo'nalish bo'yicha 2016-yilda tahminan 363 000 odam kesib o'tishgan va 2017-yilda bu raqam yanada ortgan.³²

Oxford Analyticaning ma'lumotlariga ko'ra (1-rasmga qarang), 2017-yil yanvar-aprel oylari oralig'ida YeIga Sharqiy chegaradan (Urkaina, Belarusiya tarafidan) 143 ta, Balqon tomondan 3,558 ta, Sharqiy O'rtayer dengizidan (Turkiya tarafidan) 7,468 ta, doiraviy yo'llar (circular routes / Gresiya tarafidan) 1,539 ta, Markaziy O'rtayer dengizidan (Italiya tarafidan) 37,223 ta, G'arbiy O'rtayer dengizidan (Ispaniya tarafidan) 4,096 ta, Janubiy Afrika tarafidan 74 ta migrantlar kirib kelgan.³³

³⁰ Манбаа: Hatton T. (2004). Seeking asylum in Europe. Economic Policy, 19 (38), 5–62. Иқтибос манбаси: Christof Van Mol and Helga de Valk. 2016. Юқоридаги манба.


³¹ Castles S. o'sha manba.

³² Wittenberg, L., "Managing Mixed Migration: The Central Mediterranean Route to Europe", International Peace Institute Desperate Migration Series No. 3, April 2017.

³³ Jan-Mar, Europe: Main migratory routes into the EU, Jan-Apr 2017 //

<https://dailybrief.oxan.com/Analysis/DB238314/EU-would-be-badly-prepared-for-a-fresh-migrant-crisis>


1-rasm. 2017-yil yanvar-aprel Yevropaga migratsiya



Center for Security Studies (CSS) tomonidan 2018-yil sentyabrda nashr qilingan ma'lumotida (2-rasmga qarang), YeIga 2015-yil 1 milliondan ortiq noqonuniy migrant va qochoqlar kirib kelgan bo'lsa, 2016-yil 382 000, 2017-yilda esa 186 000 ni tashkil qilgan. 2018-yil birinchi yarim yilligida 58 ming noqonuniy migrantlar kirib kelgan.³⁴

Ushbu maqolada, YeIga kirib kelayotgan noqonuniy migrantlarning asosiy yo'nalishi O'rtayer dengizi ekanligi ta'kidlanadi va asosan Ispaniya va Italiya orqali kirib kelmoqda. Masalan, 2017-yil kirib kelganlarning 28 707 tasi (ularning 21 foizi morakkashlik, 20 foizi jazoirlik, 15 foizi ganalik) Ispaniya orqali, 119 369 tasi (ularning 16 foizi nigeriyalik, 9 foizi ganalik, 9 foizi bangladeshlik) Italiya orqali, 35 052 tasi (ularning 46 foizi suriyalik, 27 foizi iroqlik, 11 foizi afg'onistonlik) Gretsiya orqali kirib kelgan.³⁵

2-rasm. 2017-yil Yevropaga migratsiya



XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Yevropaga qarab qochoq va migrantlarning soni ba'zan ko'p va ba'zan kam miqdorda tashrif buyurishi davom etmoqda va natijada mintaqada migrantlar sonini kundan kunga ko'paymoqda. Migrantlar soning o'sib borishi albatta Yevropa davlatlariga bu masala yuzasidan kelib chiqadigan oqibatlar yechimni topish qulay bo'lmagan ammo, buning ustida yangi ishlar va yo'nalishlar olib borishga majbur qiladigan bir jarayonga aylanmoqda.

³⁴ Lisa Watanabe, Outsourcing – Europas Pokerspiel mit der Migration // <http://www.css.ethz.ch/content/dam/ethz/special-interest/gess/cis/center-for-security-studies/pdfs/CSSAnalyse230-DE.pdf>

³⁵ Yuqoridagi manba.

Bugun Yevropada 78 mln. immigrant bor va buni 2000-yildagi migrantlar ulushiga taqqoslaydigan bo'lsak, 22 mln.ga ko'p demakdir. Bunday uzliksiz o'sib borish natijasida kelgusi 10-20 yillikda mintaqada immigrantlar soni qanchaga yetadi va bu Yevropa jamiyatiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bu eng muhim masala hisoblansada, migratsiyaning oldini olishning imkoni yo'qligi va Yevropa davlatlari tub aholisi va immigrantlar o'rtasidagi muozanatni qanday saqlaydi, kelayotgan immigrantlar va qochoqlar haq-huquqlari himoyalash tartibi-chi degan masalarni ham dolzarblashtirmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1) Bade K. J., (2003). Europa en movimiento: Las migraciones desde finales del siglo XVIII hasta nuestros días. Barcelona: Crítica.
- 2) Bonifazi C., (2008). Evolution of regional patterns of international migration in Europe. In C. Bonifazi, M. Okólski, J. Schoorl, & P. Simon (Eds.), *International migration in Europe: New trends and new methods of analysis*. Amsterdam: Amsterdam University Press, pp. 107-128.
- 3) Boyle P., Halfacree K., & Robinson V., (1998). *Exploring contemporary migration*. Essex: Pearson Education Limited.
- 4) Caldwell C., (2010). *Reflections on the Revolution in Europe: Immigration, Islam and the West*, Anchor Books.
- 5) Castles S. and Miller M.J., (2003). *The Age of Migration: Population Movements in the Modern World*, 3th ed. Basingstoke: Palgrave MacMillan.
- 6) Castles S., De Haas H., & Miller M. J., (2014). *The age of migration: International population movements in the modern world*. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
- 7) Christof Van Mol and Helga de Valk (2016). *Migration and Immigrants in Europe: A Historical and Demographic Perspective*. B. Garcés-Mascareñas, R. Penninx (eds.), *Integration Processes and Policies in Europe*, IMISCOE Research Series.
- 8) Goldscheider C., Bernhardt E., & Goldscheider F., (2008). What integrates the second generation? Factors affecting family transitions to adulthood in Sweden. In C. Bonifazi, M. Okólski, J. Schoorl, & P. Simon (Eds.), *International migration in Europe: New trends and new methods of analysis* (IMISCOE research. Amsterdam: Amsterdam University Press, pp. 226-245.
- 9) INSEE, (2012). *Immigrés et descendants d'immigrés en France*. Edition.
- 10) Jan-Mar, (Jan-Apr 2017). Europe: Main migratory routes into the EU // <https://dailybrief.oxan.com/Analysis/DB238314/EU-would-be-badly-prepared-for-a-fresh-migrant-crisis>

- 11) Lisa Watanabe, Outsourcing – Europas Pokerspiel mit der Migration // <http://www.css.ethz.ch/content/dam/ethz/special-interest/gess/cis/center-for-securities-studies/pdfs/CSSAnalyse230-DE.pdf>
- 12) Tampere Summit Conclusion, (15-16 October 1999) // <http://www.statewatch.org/news/2008/aug/tamp.html>
- 13) The Hague Programme – Strengthening Freedom, Security and Justice in the European Union, http://www.europol.europa.eu/jit/hague_programme_en.pdf
- 14) The Stockholm Programme — An Open And Secure Europe Serving And Protecting Citizens // <https://eur-lex.europa.eu/LexUriServ/LexUriServ.do?uri=OJ:C:2010:115:0001:0038:EN:PDF>
- 15) Vertovec S., (2007). “Super-diversity and its implications”, *Ethnic and Racial Studies* 30 (6).
- 16) Williamson J.G., (September 2006). “Global migration”, *Finance and Development*, 43/3, // <http://www.imf.org/external/pubs/ft/fandd/2006/09/williams.htm>
- 17) Wittenberg L., (April 2017). “Managing Mixed Migration: The Central Mediterranean Route to Europe”, *International Peace Institute Desperate Migration Series No. 3*.